

Ahrorova Madina Rahmatovna

O'zbekiston-Finlandiya Pedagogika institui tarix fani o'qituvchisi.

[*madiaakhrorova93@gmail.com*](mailto:madiaakhrorova93@gmail.com)

Annotatsiya: *Abu Mansur Moturidiy sunniy e'tiqodidagi ikki yirik ta'limotlardan biri bo'lmish moturidiya ta'limotining asoschilaridan hisoblanadi. Fiqh olimi, kalom ilmining moturidiylik oqimi asoschisi. «Imom al-hudo» («Hidoyat yo'li imomi»), «Imom al-mutakallimin», («Mutakallimlar imomi») nomlari bilan ulug'langan.*

Moturidiylik aqidaviy yo'nalishini keng quloqch yozishi, xususan usmoniylar davlati davriga to'g'ri keladi. Ushbu maqolada Motrudiy ilmiy me'rosi, asarlardagi falsafiy mushohadalar, shuningdek, Motrudiy ta'limotining bugungi kun tadqiqotlari va ularning ahamiyatiga oid mulohazalar berilgan.

Kalit so'zlar: *Ta'vilot, sunna, tafsir, , Qur'oni Karim va Hadisi Sharif, hanafiy, Pandnoma“*

Moturidiyning ko'plab asarlari mavjud bo'lib, bu asarlarni mavzularga ko'ra nomlaridan kelib chiqib uch qismga bo'lish mumkin:

1. Tafsir:

Moturidiyning “Ta'vilot al-ahli sunna” yoki “Ta'vilot al-Qur'on” nomi bilan tanilgan tafsiri bo'lib, bu kitob Moturidiya aqidasi ma'lum-u mashhur bo'lib, Moturidiya aqidaviy yo'nalishidagi kishilar uchun bu tafsir avvalda ham, keyin ham bemisli deb sanalgan.

2. Kalom ilmi:

1. “Kitob at-tavhid” Moturidiyning bu kitobi kalom ilmiga oid asarlarining eng ahamiyatga molikligi hisoblanadi. Bu asarda u zotning kalom ilmiga tegishli qarashlari qaror topgan va yana eng muhim e'tiqodiy masalalarni bayon qilgan.

2. Aqida bo'yicha risolalar.

3. Risola fil imon bu risolani Abu Mu'in Nasafiy Tamhid kitobida zikr etadi.

4. Maqolot: Moturidiyning "Maqolot" kitobi dastlabki "Maqolot" janridagi kitoblardan hisoblanadi. Biroq kitob bizgacha biron-bir nusxasi bizgacha etib kelmagan.

5. Bayon vahmiy al-mu'tazila;

6. Radd tahzibiy al-jadal;

7. Radd vaidiy al-fusaq;

8. Radd availiy al-adilla;

9. Radd al-usul al-homsat ila Abi Muhammad Bohiliy.

3. Usul al-fiqh.

Moturidiy o'z ta'limotini an'alarini va ilmiy asarlari bilan Movarounnahr ilohiyot maktabi rivojlanishiga katta ulush qo'shdi. Ilohiyot ilmlari to'la shakllanib kamol topishiga xizmat qildi. Ularni qayta ishlab chiqib, ma'lum tizimga solishdek bir ishni amalga oshirdi va hanafiy talimotini O'rta Osiyo xalqlarining urf-odatlarini bilan bog'liqligini o'z qarashlari orqali ko'rsatib berdi. Uning ta'limoti islom dinining buyuk aqidaviy oqimidan biri sifatida tanildi. Mashhur turk olimi Toshkubrozodaning ta'kidlashicha: «Ahli-sunnaval jamoa»da kalom ilmi raislari ikki kishi bo'lib, ulardan biri Hanafiy ikkinchisi Shofi'iydir. Hanafiy Abu Mansur al-Moturidiy Shofi'iy esa Abul Hasan Ash'ariydir". Ko'rinib turibdiki, bizning diyorlarimizda aqida masalalarida moturidiya ta'limotlariga amal qilinadi.

Imom al-Moturidiy faolyatida muborak islom dinining hayotbaxsh g'oyalarning sofliqi, e'tiqodiy masalalarini bir tomonlama va xato talqin zalolatga botgan har xil toifalar va oqimlarga qarshi kurash, Qur'oni Karim va Hadisi Sharifga tayangan holda asosli raddiyalar berish salmoqli o'rinni egallaydi. Shu boisdan Allomaning o'lmas ta'limotlari bugungi kun uchun ham katta amaliy ahamiyat kasb etib, hidoyat yo'lidan adashgan ba'zi buzg'unchi guruhlarini fosh etishda munosib hissasini qo'shishi shubhasizdir.

Moturidiy-hanafiylar ta'limotiga ko'ra, amallar imonga emas, uning qalbdagi nuriga ta'sir qiladi. Yaxshi amallar imon nurining ziyodalashishiga va gunoh ishlar – kamayishiga olib keladi. Kishining bilishi zarur bo'lgan muhim masalalardan yana biri bu “gunohi kabira”, ya'ni katta gunohlar mo'min insonning imonini ketkazmasligidir. Ba'zi adashgan toifalar, agar musulmon kishi gunohi kabira qilsa, uning imoni chiqib ketadi va kofir bo'ladi, deydi. Bu mutlaqo noto'g'ridir. Moturidiy-hanafiy e'tiqodi bo'yicha, agar musulmon kishi biror katta gunoh ishni qilib qo'ysa va uni halol sanamasa, kofir bo'lib qolmaydi. Ya'ni, o'g'rilik, zino, birovni o'ldirish kabi 11 Imom Moturidiy katta gunohlardan biriga qo'l urgan kishi uni halol sanamasa, kofir bo'lmaydi. Imom Moturidiy yashagan yillar islomiy ilmlar va g'oyalar gurkiragan davrga to'g'ri keldi. Ayni vaqtda barcha sohalar qatori islomiy ilmlarda ham hurfikrlik, o'z nuqtayi nazari va qarashlarini dalil va isbotlarga tayanib, emin-erkin ifoda qilish kuchaydi. Bu hol, o'z navbatida, jahmiylar, qarmatiylar, rofiziylar, murjiylar, karromiylar va shu kabi boshqa oqimlar paydo bo'lishiga olib keldi. Ayniqsa, oldinroq paydo bo'lib, ko'pchilik o'lkalar kabi Movarounnahrni ham qamrab olgan mo'tazila oqimining noto'g'ri qarashlari jamiyat a'zolari o'rtasida xilma-xil ziddiyatlar va ixtiloflarga sabab bo'ldi. Imom Moturidiy esa bu kabi oqimlarga qarshi chiqib, islomning asl mohiyatini ochib berdi. Uning ta'limoti bugungi kun uchun ham g'oyat dolzarb ahamiyat kasb etib, to'g'ri yo'ldan adashgan ba'zi guruhlarning g'oyalarini fosh etishda yaqindan yordam berib kelmoqda.

Abu Mansur Moturidiy o'z ta'limoti va ilmiy asarlari bilan Movarounnahr ilohiyot maktabining rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. Ilohiyot ilmlarining to'la shakllanib, takomilga etishida ularni qayta ishlab chiqib, ma'lum tizimga solishda katta bir ishni amalga oshirdi. Buyuk alloma o'z qarashlari bilan hanafiylik ta'limotining O'rta Osiyo xalqlari an'analari va urf-odatlarini bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatib berdi. Buyuk vatandoshimiz yaratgan ta'limot islom dinining buyuk aqidaviy maktablaridan biri sifatida keng ko'lamda tan olindi. Sunniylikning hanafiylik mazhabiga e'tiqod qiluvchilarning barchasi aqida bobida Imom Moturidiy va uning shogirdlari hamda izdoshlari yozib qoldirgan qimmatli asarlarga tayanib ish ko'radilar. Eng e'tiborlisi, islom olamining

aksariyat mintaqalarida, Suriya, Iroq, Turkiya, Pokiston, Hindiston, Shimoliy Afrikada moturidiylik ta'limoti hozir ham o'rta va oliy diniy o'quv yurtlarida mustaqil fan sifatida o'qitib kelinadi. Yevropa va Turkiya olimlari tomonidan kalom ilmi tarixiga oid ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, Markaziy Osiyo hududida ushbu soha bo'yicha hali etarli ishlar amalga oshirilgani yo'q edi. 2000 yil Imom Moturidiy tavalludining 1130 yilligi O'zbekistonda keng nishonlanishi ushbu sohada o'zbekistonlik tadqiqotchilarning faoliyati rivojiga turtki bo'lgan bo'lsa, ikkinchidan 2000 yilda olmon sharqshunosi Ulrix Rudolfning Abu Mansur Moturidiy ilmiy merosiga oid tadqiqoti rus va o'zbek tiliga tarjima qilingani unga bo'lgan qiziqishni yanada oshirdi. Va nihoyat 2020 yil 30 Imom Moturidiy 11 avgustda yurtboshimiz tomonidan "Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori sohani yanada chuqurroq o'rganish, Imom Moturidiyning asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilish, moturidiylik ta'limotini xalqaro miqyosda targ'ib-tashviq qilish imkoniyatini berdi. O'tgan yillar ichida kalom ilmi tarixi, xususan, moturidiya ta'limotiga bag'ishlab O'zbekistonda Sh.Ziyodov, S.Oqilov, H.Sagdiev, E.Daminov, A.Alloqulov va O'.Polvonovlar dissertatsiyalar himoya qildilar. Bugungi kunda moturidiylik ta'limotini izchil o'rganish, manbalarini atroflicha tahlil qilish xorijiy va mahalliy mutaxassislar oldida turgan ulkan vazifalardan biridir. Imom Moturidiy xalqaro ilmiy tadqiqot markazi tomonidan olimning "Ta'vilot al-Qur'on" va "Kitob at-tavhid" asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilinishi yurtimizda moturidiylik ta'limotining yana jonlanishi, rivojlanishi garovi sifatida baholash mumkin.

Quyida shayx Abu Mansur Motrudiydan "Pandnoma" asari beshinchi faslidann namunalar keltiramiz:

- Orzu-umid farzandi bo'l.
- Oila a'zolari haqqini unutm.
- Qalbingni din bilan dono qil.
- — Martaba, boylikka erishgach, o'zliging unutm.
- Davlat paytida balandhimmat bo'l.
- Og'ir kunlarda sabr-bardoshli bo'l.

- Oz dardni ko‘p bil.
- Boylikka erishgach, himmatbaland bo‘l.
- Diyonatda bardam va mustahkam bo‘l.
- O‘zingni orzular daryosiga g‘arq etma.
- Nodondan yiroq yurishga intilgin.
- Baxillik bilan martaba qozonolmaysan.
- To‘g‘ri yo‘lni ochguvchi ilmdir.
- G‘amg‘usoringga g‘amingni ayt.
- Hech kimga haqorat ko‘zi bilan boqma.
- Xalq bilan bir tan, bir jon bo‘l.

Xulosa o‘rnida aytadigan bo‘lsak, Imom Moturidiy hanafiylik ta’limotiga suyangan holda, davr talabidan kelib chiqib, uni rivojlantirdi va islom dini e’tiqodiy asoslarini tartibga soldi. Shu bilan u Movarounnahr islom ilohiyot maktabi rivojiga katta hissa qo‘shdi. Allomaning qarashlari va asos solgan ta’limoti “Kitobut tavhid” va “Ta’vilotul Qur’on” asarida o‘z ifodasini topgan. Imom Moturidiyning fikricha, insonlarning yaxshi va yomon ishlari Allohning xohish-irodasiga bog‘liq holda, U Zotning roziligi yoki noroziligi bilan amalga oshadi. Alloh taolo insonni yaratib, ixtiyorni uning o‘ziga bergan. Ya’ni, qiladigan ishlari Allohning ilmi bilan azaldan taqdiriga bitib qo‘yilgan bo‘lsa-da, unga tanlash ixtiyori berilgan. Imom Moturidiy buni “af’oli ixtiyoriy”, ya’ni “insonda iroda erkinligi” deb ataydi. Imom Moturidiy islom ta’limotida ilk bor “bilish 6 Imom Moturidiy nazariyasi”ni ilmiy asoslab berdi. Moturidiylikda asosan naqlga tayanilib, aql ulardagi ba’zi masalalarni anglashda yordamchi vosita hisoblanadi. Masalan, Imom Moturidiy “Alloh taoloni tanish aql bilan vojib bo‘ladi”, deydi. Ya’ni, Qur’oni karimda bayon qilinganidek, osmonlar-u erda va ularning orasida buyuk Yaratuvchidan, qudratining cheksizligidan dalolat beradigan ko‘pdan-ko‘p alomatlar bor. Inson aql yordamida ham o‘sha narsalarni yo‘qdan bor qilgan Yaratuvchi borligini anglashi lozim, deydi. Shundan kelib chiqadiki, inson aqli Alloh taolo tomonidan bandalarga ato etilgan ulug‘ ne’matdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Imom Motrudiy. Nashr uchun mas'ul: Ravshan Elmurodov T:2021

2. Имом Мотрудий. «Ўзбекистон халқаро ислом академияси» нашриёт-матбаа бирлашмаси Тошкент – 2022

3. Шайх Абу Мансур Мотуридий ПАНДНОМА Форсийдан Ҳамиджон Ҳомидий таржимаси.